

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

QOSIMOV SUNNAT HATAMOVICH

**XALQARO YO‘NALISHLARDA YUK TASHISHNI TASHKIL
ETISHNING TRANSPORT-TERMINAL TIZIMI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH**

08.00.05 - Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Qosimov Sunnat Hatamovich

Xalqaro yo‘nalishlarda yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimi samaradorligini oshirish3

Косимов Суннат Хатамович

Повышение эффективности транспортно-терминальной системы организации международных перевозок27

Kosimov Sunnat Khatamovich

Improving the efficiency of the transport-terminal system of the organization of international transportation53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works57

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

QOSIMOV SUNNAT HATAMOVICH

**XALQARO YO‘NALISHLARDA YUK TASHISHNI TASHKIL
ETISHNING TRANSPORT-TERMINAL TIZIMI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH**

08.00.05 - Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3711 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Jizzax politexnika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bobanazarova Jamila Xolmurodovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Arabov Nurali Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Temirxanov Abdulla Utebay-uli
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «20» iyun kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel. (998 61) 223-60-78; email: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (309 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (998 61) 223-60-78; email: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «03» iyun kuni tarqatildi.
(2025-yil «03» iyun dagi 76 raqamli reyestr bayonnomasi).



J.K.Sauxanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

R.B.Utemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

B.S.Qalmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni chuqurlashib borishi sharoitida xalqaro yo‘nalishlarda yuk tashish sohasida raqobatning kuchayib borishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Transport tizimini rivojlantirishda “...jahon transport xizmatlarining YAIM tarkibidagi miqdori 4,3 trln. AQSH dollari (6,9 %)ni tashkil etib, yiliga 110 mlrd. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo‘lovchilar tashilmoqda, transport kompleksida band bo‘lgan xodimlar soni 100 mln. kishini tashkil etmoqda”¹. Bugungi kunda, tashish xizmatlarida kuchayib borayotgan raqobat sharoitida tizim samaradorligini oshirish, xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha transport-terminal tizimini rivojlantirishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon miqyosida xalqaro yo‘nalishlarda yuk tashishni tashkil etish borasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar tarkibida transport-terminal tizimi samaradorligini oshirish borasidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada yuklarni tezkor etkazib berishda transport-terminal tizimining ishonchliligini oshirish, transport-terminal tizimini rivojlantirishda transport turlari imkoniyatlaridan samarali va uyg‘un foydalanish, transport xizmatlarini yo‘lga qo‘yishda zamonaviy etkazib berish texnologiyalaridan foydalanishning uslubiy asoslarini takomillashtirish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda xalqaro yuklarni tashishda transport xizmatlariga bo‘lgan o‘sib borayotgan talabni qondirishda yuk tashish tizimini zamonaviy talablarga ko‘ra tashkil qilish, sarf-xarajatlarni minimallashtirish, transport-terminal tizimi samaradorligini oshirishga ko‘ra iste‘molchilarning talablarini qondirish kabi yo‘nalishlarda dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mahsulotlarimizni ichki va tashqi bozorlarga etkazish, ularning tannarxini tushirish uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur. Bu borada xalqaro yo‘nalishlarda yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni, 2019-yilning 6-martdagi PQ-4230-son «Yuk va yo‘lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 6-martdagi PQ-3589-son “Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi 277-son “Avtomobilida yuk va yo‘lovchilarni xalqaro tashishning ruxsatnoma tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

¹<https://cyberleninka.ru/article/n/mirovovoy-rynok-obrazovatelnyh-uslug-vysshey-shkoly;http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=3649>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni oʻrganilganlik darajasi. Transport xizmatlarini rivojlantirish, yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimi samaradorligini oshirish masalalari boʻyicha muammolarining fundamental asoslari xorijlik olimlar² M.SteadieSeifi, N.P.Dellaert, Dj.Bauersoks Donald, Dj.Kloss Deyvid, Barbara Flugge, Slatvinska Valeria va boshqalar tomonidan oʻrganilgan.

MDH olimlaridan³ M.N. Kearney, V.G. Galaburda, YU.V. Zadvorny, A.A. Avetikyan, L.H. Sokolova, V.V. Klepikov va boshqalar tomonidan xalqaro yoʻnalishlarda yuk tashishda transport-terminal tizimi va logistika kompleksining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari tadqiq qilingan.

Oʻzbekistonlik olimlaridan⁴ G.Samatov, M.Ikramov, Y.Qorrieva, A.Shermuxeimedov, K.Ziyadullaev, M.Irisbekova, A.Zohidov, Artiqov J.Yu, U.Saidov, E.A. Kamalova va boshqalar raqobat sharoitida xalqaro yuk tashuvlar samaradorligini oshirishda transport-terminal tizimi faoliyatining muhim masalalarini tadqiq qilishda katta hissa qoʻshganlar.

Mazkur tadqiqotlarda xalqaro tashuvchilarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, transport-terminal tizimi xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ayrim jihatlari oʻrganilgan. Shuningdek, xalqaro yoʻnalishlarda yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimi samaradorligini oshirishni takomillashtirish bilan bogʻliq tadqiqotlarni kengroq oʻrganish mazkur mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

²SteadieSeifi M., Dellaert N.P., SteadieSeifi M., Dellaert N.P., Nuijten W., Van Woensel T., Raoufi R. Multimodal freight transportation planning: A literature review. *European Journal of Operational Research*. 233 (2014). 1–15; Бауэрсокс Дональд Дж., Клосс Дейвид Дж. Логистика: интегрированная цепь поставок. – М: Олимп-Бизнес, 2001. С. 640. Barbara Flugge. *Smart mobility – connecting everyone*. 2017; Allallied to fight pulik transport s perceived decline: relationship marketing in Brazil, in: Anais de l 1st International Conference oh Public Transport Marketing, Barcelona, 2011, pp 1-10. Slatvinska Valeria et al. (2021) “The experience of EU countries towards the development of infrastructure and logistics hubs.” *Revista de la Universidad del Zulia*: n. pag.

³Кеарней М.Н. Логистика в системе организации предпринимательской деятельности коммерческих структур : автореф. дис. ...д-ра экон. наук / М.Н. Кеарней. СПб., 2011. 31-с. Галабурда, В. Г. Единая транспортная система: Учеб. для вузов под ред. В. Г. Галабурды. – 2-е изд. с измен.и дополн. – М.: Транспорт, 2001. – 303-с.; Задворный Ю.В. Формирование интегрированной транспортной инфраструктуры в регионе. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2005. С. 152.; Аветикян А.А., Соколова Л.Н., Заварская Н.Ф. Повышение конкурентоспособности железных дорог на транспортных рынках. - Сб. ЦНИИТЭИМПС, 2001. -с. 27-43 Клепиков В.В. Экспортные грузопотоки: дефицит координации // Мир транспорта, 2004, №3, с. 86-89.

⁴Икромов М.А. Развитие автомобильных перевозок по Великому шелковому пути // *Экономическое возрождение России*, №4, 2010. –С. 28-36; Qorrieva Y.K. Oʻzbekistonning jahon bozoriga chiqishi uchun xalqaro yoʻlaklardan samarali foydalanishning logistik transport muammolari. *Iqt. fan. dok. ... dis. avtoref.*, Toshkent 2004; Шермухамедов А.Т. Великий шелковый путь и транспортные перевозки. ФРГ. – Берлин: Изд. LAP, 2012. - 90 с.; Зиядуллаев К.Ш. Интеграция транспортных коммуникаций Республики Узбекистан в международную транспортно-коммуникационную систему // *Современные методы организации бизнеса и маркетинга: Межвузовский сборник*. –СПб.: СЗТУ, 2005. –С. 101-106.; Zohidov A.A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish. *Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref.*, Toshkent 2018.; Saidov U.Sh. Xalqaro yuk tashuvlar bilan bogʻliq ayrim masalalarga oid. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali <http://iqtisodiyot.tsue.uz>. 2021.- 421-423 б. Э.А.Камалова. Совершенствование управления перевозки грузов автомобильным транспортом. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2019. – 135 b.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Jizzax politexnika institutining "OT-F1-128 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish sifati va tarkibini takomillashtirishning nazariy asoslari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xalqaro yo'nalishlarda yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimi samaradorligini oshirishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

yuk tashish xizmatlarini tashkil etishda transport-terminal tizimini rivojlantirishdagi o'rni, undan samarali foydalanish shart-sharoitlarining konseptual asoslarini ochib berish;

transport-terminal tizimi samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq etish;

xalqaro tajribalar asosida mamlakatda transport-terminallaridan foydalanish va yuk tashish xizmatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

transport-terminal xizmatlari ko'rsatish orqali xalqaro yo'nalishlarda yuk tashishni tashkil etish tizimi shakllanishining yondashuvli tahlilini amalga oshirish;

sotsiologik so'rov natijalari asosida eksportni rivojlantirishning zamonaviy xizmatlar turlarining ahamiyatini aniqlash;

transport-terminal tizimini rivojlantirish hamda logistika xizmatlari samaradorligini baholash mexanizmlarini aniqlash;

xalqaro yo'nalishlarda yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi xizmatlar sohasida transport-terminal faoliyati bilan shug'ullanuvchi transport tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, xalqaro yo'nalishlarda yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimi samaradorligini oshirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada guruhlashtirish, tizimli va statistik tahlil, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, sotsiologik so'rovnoma kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalqaro yuk tashishga ixtisoslashtirilgan transport-terminal xizmati samaradorligini baholash yondashuvi tashish terminallarini kengaytirish, xalqaro tashuv va logistik jarayonining o'zaro tarkibiy elementlari mutanosibligida ehtiyojni qondirish va moddiy resurslarni uyg'unlashtirishga ko'ra takomillashtirilgan;

transport-terminal tizimiga innovatsion texnologiyalarni qo'llash yondashuvi texnologik tuzilmalarning muvofiq o'zgarishi asosida transport xizmatlarini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarishni ta'minlashga ko'ra takomillashtirilgan;

Jizzax viloyatida transport-terminal xizmatlar ko'rsatish tizimining rivojlanishi tendensiyasi, maqsadli parametrlar bog'liqligi korrelyatsiyasi va ta'sir etuvchi omillarga ko'ra transport-terminal xizmat ko'rsatish hajmi, transport

xizmatlar ko'rsatish hajmi, xalqaro yo'nalishlarda yuk tashish hajmi va xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar hajmining 2025-2029 yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari asoslangan;

yagona transport tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi samarali transport-terminal tizimining modeli xususiy investitsiyalarning investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish ustuvorligi asosida standartlarga javob beruvchi transport-terminal markazlari tarmog'ini kengaytirishga ko'ra takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

transport xizmatlari xalqaro bozorida raqobatbardoshlik darajasini oshirishda «transport-terminal tizimi samaradorligi» kategoriyasining iqtisodiy mazmunini ifodalovchi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash, transport-logistika xarajatlarini maqbullashtirishdagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar asoslangan;

xalqaro yo'nalishlarda yuk tashiydigan tadbirkorlik subyektlariga mahalliy va chet elda ishlab chiqarilgan katta yuk avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalarni sotib olishda imtiyozlar berish orqali ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

xorijiy va mahalliy investorlar hisobiga transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda transport-logistika markazining zamonaviy tarmoqlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda taklif etilgan xulosa va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xalqaro yo'nalishlarda yuk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimining tarkibiy elementlarini tasniflash, tizim samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, xalqaro tashuv jarayonida transport-terminallaridan foydalanish ilmiy apparatni boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif va tavsiyalardan xalqaro yuk tashish bo'yicha yangi loyihalarning samaradorligini iqtisodiy baholash, sohaga oid me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, yuklarni xalqaro tashishni samarali tashkil qilish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda hamda «Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti», «Transport logistikasi», «Bojxona ishi» fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro yo'nalishlarda yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan olingan natijalar asosida:

xalqaro yuk tashishga ixtisoslashtirilgan transport-terminal xizmati samaradorligini baholash yondashuvi tashish terminallarini kengaytirish, xalqaro tashuv va logistik jarayonining o'zaro tarkibiy elementlari mutanosibligida ehtiyojni qondirish va moddiy resurslarni uyg'unlashtirishga ko'ra takomillashtirishi bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 31-oktabrdagi 4/10430-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif xalqaro bozorlarga chiqishda logistika samaradorligini oshirish va tizimni jadal rivojlantirish imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

transport-terminal tizimiga innovatsion texnologiyalarni qo'llash yondashuvini texnologik tuzilmalarning muvofiq o'zgarishi asosida transport xizmatlarini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarishni ta'minlashga ko'ra takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 31-oktabrdagi 4/10430-son ma'lumotnomasi). Natijada mintaqaviy va xalqaro transport tizimida yuk va yo'lovchilarni tashishda yangi innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash imkoniyatlari yaratilgan;

Jizzax viloyatida transport-terminal xizmatlar ko'rsatish tizimining rivojlanishi tendensiyasi, maqsadli parametrlar bog'liqligi korrelyatsiyasi va ta'sir etuvchi omillarga ko'ra transport-terminal xizmat ko'rsatish hajmi, transport xizmatlar ko'rsatish hajmi, xalqaro yo'nalishlarda yuk tashish hajmi va xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar hajmining 2025-2029 yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 31-oktabrdagi 4/10430-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif viloyatda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar hajmini istiqbolda o'rtacha 13 foizga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

yagona transport tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi samarali transport-terminal tizimining modeli xususiy investitsiyalarning investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish ustuvorligi asosida standartlarga javob beruvchi transport-terminal markazlari tarmog'ini kengaytirishga ko'ra takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 31-oktabrdagi 4/10430-son ma'lumotnomasi). Natijada mintaq va xalqaro miqyosda zamonaviy, qulay transport tizimini rivojlantirish, transport xarajatlarini qisqartirish va o'z navbatida mintaq orqali tashilayotgan tranzit oqimini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 3 ta, xorijiy jurnalda 1 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 126 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda yuk tashishni tashkil etishda transport-terminal tizimini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yuk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimining ahamiyati va rivojlanish tamoyillari, xalqaro yo'nalishlarda yuk tashishni tashkil etishda transport-terminal tizimi samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy-konseptual asoslari tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda xalqaro yo'nalishlarda yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda, jumladan 2024-yilda tranzit yuk tashish hajmi 13,9 mln. tonnani tashkil etgan bo'lib, yirik mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish hisobiga tranzit yuk tashish hajmini 23 mln. tonnaga yetkazish imkoniyati mavjud. Xalqaro yuk tashish hajmi 1,8 barobarga o'sib, o'tgan yilda bu ko'rsatkich 59,6 mln. tonnani tashkil qilgan.

Xalqaro yuk tashish tizimining takomillashtirilishi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, transport-terminal infratuzilmasining samaradorligini oshirish va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash asosiy strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Milliy tashuvchilarining xalqaro bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zamonaviy avtotransport vositalari bilan ta'minlash, transport xizmatlari bozorida ularning raqobatbardoshligini oshirish va yuk tashish tizimini optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotda yuk tashish amaliyotining turlari bo'yicha unimodal, murakkab va aralash turlariga taalluqlidir faoliyati tushunilib, ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha intermodal atamasi bitta operator boshqaruvida yagona yuk tashish hujjati asosida yagona fraxst stavkasini to'g'ridan-to'g'ri qo'llash bilan amalga oshiraladigan aralash “door to door” (eshikdan eshikkacha) yuk tashish tushunchasining turlicha qarashlar ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, quyidagicha mualliflik qarashi ilgari surilgan: yuk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimi zamonaviy me'yorlardan samarali foydalanish asosida xalqaro bozorlarga chiqishni ta'minlovchi transport yo'laklari infratuzilmalarini rivojlantirish, ko'p tarmoqli transport tuzilmasini shakllantirish,

tashish xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish orqali yuk tashish jarayonini to'g'ri tashkil etishga erishish imkoniyatlaridir.

Muallif o'z tadqiqotida multimodal transport koridorlarini yaratish, konteynerlarda yuk tashishga ixtisoslashgan yirik transport kompaniyalarini tashkil qilish hamda mazkur sohaga boshqaruv tizimini qo'llash asosida takomillashtirish, zamonaviy talablarga asosan infratuzilmani rivojlantirish hamda unga eng ilg'or zamonaviy shakllarni tadbiq etish bo'yicha tizimli ishlarni ko'rsatib bergan. Mazkur tizimli ishlarning amalga oshirilishida mamlakatimizda avtomobil transportida yuk tashishni tartibga solish bo'yicha xalqaro 9 ta konvensiya va 2 ta bitimning teng huquqli a'zosi hisoblanadi.

Shuningdek, Evropa, Osiyo va MDHning yigirmadan ortiq davlatlar bilan avtomobilda xalqaro tashuvlar sohasini tartibga soluvchi ikki tomonlama hukumatlararo bitimlar imzolangan. Bular - Turkiya, Ukraina, Eron, Belarus, Gruziya, Moldova, Turkmaniston, Latviya, Ruminiya, Qirg'iziston, Slovakiya, Litva, Finlyandiya, Bolgariya, Gretsiya, Chexiya, Rossiya, Italiya, Germaniya, Avstriya, Shveysariya, Vengriya, Gollandiya, Polsha, Sloveniya, Qozog'iston, Xitoy, Ispaniya va Tojikistondir. Shuningdek, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida xalqaro avtomobil tashuvlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish to'g'risidagi hamda Eron Islom Respublikasi, Ummon sultonligi, Qatar, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida xalqaro transport va tranzit yo'lagini yaratish to'g'risidagi ko'p tomonlama bitimlar ham imzolangan. Bugungi kunda zamon talabidan kelib chiqib, respublikamiz transport tizimidan samarali foydalanish, multimodal va intermodal tashuvlarining rivojlanishi, yangi infratuzilma obyektlarini barpo etishni, ya'ni tashish terminallarini shakllantirish lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqot jarayonida xalqaro yuk tashishga ixtisoslashtirilgan transport-terminal xizmati samaradorligini baholash yondashuvi tashish terminallarini kengaytirish, xalqaro tashuv va logistik jarayonining o'zaro tarkibiy elementlari mutanosibligida ehtiyojni qondirish va moddiy resurslar uyg'unlashtirilgan. Davlat transport siyosatining strategik maqsadi mamlakat, fuqarolar, yuk tashish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish ehtiyojlarini to'la qondirish, moddiy resurslardan samarali foydalangan holda transport faoliyatini tashkil etishga qaratilganligi, xalqaro bozorlarga chiqishda logistika samaradorligini oshirish va tizimni jadal rivojlantirish imkonini berib, u quyidagi 1-rasmda ko'rsatilgan.

Muallif tadqiqot ishida rivojlangan xorijiy davlatlarda xalqaro miqyosda tashish transport-terminallaridan foydalanishning ilg'or tajribalarini o'rgangan va G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Rossiya va Xitoy tajribasini solishtirish asosida guruhlagan. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida tranzit logistika markazlari faoliyati transport kompleksi Gollandiyada daromadining 45-50%, Fransiyada 30-35%, Germaniyada 30-35% ni tashkil etgani qayd qilingan. Transport-logistika tarmoqlarini (markazlar) rivojlantirishga xususiy sektorlarni (outsorsing) hamda xalqaro kompaniyalarni jalb qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'lib, bugungi kunda dunyo mamlakatlari orasida globallashuv barcha davlatlararo tashqi iqtisodiy aloqalarini transport-terminal tizimi faoliyatiga bog'liq

bo‘lib, Evropa va Osiyo mamlakatlarining muqobil yo‘llarini kengaytirishni talab qiladi.


Tamoyillar	Tamoyillarni amalga oshirish yo‘nalishlari
<p>1. Xalqaro yuk tashishlarga ixtisoslashtirilgan transport-terminal xizmatlari tizimi samaradorligini baholash hamda transport-terminal tizimini kengaytirish, takomillashtirish va uni baholashning ilmiy uslubiy asoslarini yaratish</p>	<ul style="list-style-type: none"> – Yuk tashishni rivojlantirishning zamonaviy jihatlarini hisobga olish va nazorat qilish. – Yuklarni sug‘urtalash, saralash, qadoqlash, saqlash, qo‘riqlash va logistik operatsiyalarning bajarilishida tashish xizmatlarining qat’iy qoidalariga rioya qilish. - Xalqaro tashishlarda transport faoliyatini optimalashtirish, transport bozori faoliyatini baholash. – Logistik tizim sharoitlarida avtotransportda yuklarni tashishning optimal hajmini aniqlash.
<p>2. Xalqaro tashuv va logistik jarayonlarning o‘zaro tarkibiy elementlari mutanosibligini asoslash. Yuk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimi xizmatlari samaradorligini oshirish</p>	<ul style="list-style-type: none"> – Yuk tashishda minimal xarajatlar bilan maksimal sinergetik samaradorlikka erishish. – Xizmat ko‘rsatish ishonchliligini oshirish uchun sifat darajasi va zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish. – Yuk tashish xizmatida raqobat muhitini shakllantirish va unga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy vositalarni rivojlantirish. – Hududlarda terminallarning mehmonxonalar, ovqatlanish punktlari, avtotransport uchun turish maydonlari, harakatlanuvchi qism va konteynerlarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash zonalari bilan jihozlanishi hisobiga qo‘shimcha xarajatlarni kamaytirish.
<p>3. Mamlakat tranzit salohiyatini to‘laqonli ruyobga chiqarish. Transport-terminal tizimida xizmatlar ko‘rsatuvchi quvvatlarni rivojlantirish</p>	<ul style="list-style-type: none"> - Yuk tashishda transport egalari va xizmat ko‘rsatiladigan mijozlar iqtisodiy manfaatlarining tengligiga erishish. - Yangi ish joylarini tashkil etish va investitsiyalarini jalb etish hisobiga transport sohalarida ish bilan bandlikni oshirish. - Transportdan foydalanishning maksimal darajada qulayligi, keng doirada xizmatlar ko‘rsatish, mijozlarni ularga xos bo‘lmagan funksiyalardan ozod qilish. - Transport-terminal xizmatlarning ishlab-chiqarish texnika bazasini rivojlantirish hisobiga yuk tashish xizmat ko‘rsatishi sifatini jahon standartlari darajasiga yaqinlashtirish.

1-rasm. Yuk tashishni tashkil qilishda transport-terminal tizimining rivojlanish tamoyillari⁵

⁵Muallif ishlanmasi.

Tadqiqot ishining “**Xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha yuk tashishning transport-terminal tizimi xizmatlarini rivojlantirish omillari va tendensiyalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida xalqaro yuk etkazib berish xizmatlari rivojlanishining hozirgi holati va unga ta’sir etuvchi omillar, yuk tashishni tashkil etishning transport-terminal tizimi samaradorligini baholash usullari ilgari surilgan va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha yuk tashishning transport-terminal tizimi xizmatlari sohasi barqaror rivojlanishi ekonometrik modellashtirilgan.

Tadqiqot ishida transport-terminal tizimiga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash yondashuvi texnologik tuzilmalarning muvofiq o‘zgarishi asosida transport xizmatlarini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarishni ta’minlashga ko‘ra takomillashtirilgan. Ushbu uslubiy taqqoslashni ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilishda mahsulotlarni yuqori darajada etkazib berishning har bir bosqichida belgilangan vazifalar o‘zgaruvchanlik xususiyatini ko‘rsatadi. Bunday o‘zgarishlar yuk tashish sifatining yaxshilanishi, yuklarni “eshikdan-eshikkacha” yetkazib berish, konteynerli va aralash holda yetkazib berish, texnologik yo‘nalishlar va boshqa zamonaviy tashish usullaridan foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Mazkur uslubiyatda muallif innovatsion texnologiyalarni qo‘llash asosida transport infratuzilmasini kompleks rivojlantirish, turli hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-terminal tizimining zamonaviy tarmog‘ini shakllantirish bo‘yicha asoslangan tavsiyalarni ilgari surgan (2-rasm).



2-rasm. Transport-terminal tizimida innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish⁶

Shundan kelib chiqib, xalqaro yo‘nalishlarda yuk tashishni tashkil etish bo‘yicha transport-terminal tizimi samaradorligini oshirish, transport xizmatlarini yo‘lga qo‘yishda zamonaviy yetkazib berish texnologiyalaridan foydalanish kabi ilmiy muammolarni tadqiq etish uchun O‘zbekiston Respublikasida transport turlarida tashilgan yuklar hajmining o‘zgarishi tahlil qilindi 1-jadvalga qarang.

Respublika hududi bo‘ylab tashilgan jami tashqi va ichki yuklar salmog‘i yuqorida keltirilgan transport turlari orqali tashilgan bo‘lib, tashqi savdo yuklari hajmi tahlili ko‘rsatadiki, barcha transport turlarida tashilgan yuklar jami 2023

⁶Muallif ishlanmasi

yilda 1455,7 mln. tonnani tashkil qilib, bunda temir yo‘l transporti 73,7 ni, quvur yo‘li transporti (neft va gaz) 60,0, avtomobil transporti 1322,0, havo transporti esa 9,3 mln. tonnani tashkil qilmoqda.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida transport turlarida tashilgan yuk tashish xizmatining o‘zgarish salmog‘i⁷

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2023 - 2022 yilga nisbatan (+,-)
Barcha transport (mln. tonna), shu jumladan	1319,8	1366,7	1420,2	1420,9	1455,7	34,8
temir yo‘l transporti	70,1	70,6	72,0	73,4	73,7	0,3
quvur yo‘li transporti (neft va gaz) kub.m	71,9	57,9	66,2	63,5	60,0	-3,5
avtomobil transporti	1177,7	1238,2	1282,0	1284,1	1322,0	37,9
havo transporti, ming tonna	10,4	5,3	9,1	10,2	9,3	-0,9
Yuk aylanmasi mln. t.km.	72 613,3	66 894,2	74 784,8	75 492,7	77 602,5	2109,8

Tadqiqot jarayonida milliy tashuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ular uchun raqobat muhitini yaratish va davlat, hukumat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlarni alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Shu bilan birga, mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish tarmog‘idagi innovatsion jarayonlarning ortib borishi transport-terminal xizmatlar ko‘rsatish tizimida katta ahamiyat kasb etadi deyish mumkin. Biroq mazkur holatlarni mukammal baholash, aniq miqdoriy ifodalash, ta’sir darajalarini o‘lchash, istiqboldagi tendensiyalarini pragnozlash uchun keng ko‘lamli ko‘rsatkichlar tizimida modellashirishni talab etadi.

Jizzax viloyatining tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha tahliliy ma’lumot 2023 yil davomida Jizzax viloyatining tashqi savdo aylanmasi 1 432,2 mln. dollar bo‘lib, shundan 88 foiz – 1256,6 mln. dollar import va 12 foiz – 175,6 mln. dollar eksportga to‘g‘ri keladi. Hisobot davrida -1081,0 mln. dollar salbiy saldogaga ega bo‘ldi.

Jizzax viloyati bilan eng ko‘p tashqi savdo aylanmasi Xitoy bilan bo‘lib, 673,6 mln. dollar importni tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarda Janubiy Koreya (316,7 mln. doll.), Chexiya (90,1 mln. doll.), Litva (32,0 mln. doll.) davlatlari turadi.

Hisobot oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar eksporti 39,5 mln. dollar, mashina va transport uskunalari 5,7 mln. dollar, kimyoviy moddalar va mahsulotlar

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

eksporti 14,4 mln. dollar, boshqa mahsulotlari eksporti 112,7 mln. dollarni tashkil etdi. Ushbu davrda mashina va transport uskunalari importi 1149,5 mln. dollar, oziq-ovqat mahsulotlari 19,7 mln. dollar, qora va rangli metall 7,6 mln. dollar, kimyoviy moddalar va mahsulotlar 39,0 mln. dollar, har xil tayyor mahsulotlar 24,8 mln. dollarni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan eksportning 46,0 foizi Jizzax shahri, 9,6 foizi Zarbdor, 7,7 foizi Paxtakor, 7,4 foizi Do'stlik tumanlaridan amalga oshirildi.

Importning 39,5 foizi Jizzax shahri, 38,7% G'allaorol tumaniga to'g'ri keladi.

Tadqiqot jarayonida Jizzax viloyatida transport-terminal xizmatlar ko'rsatish tizimining rivojlanishi tendensiyasi, maqsadli parametrlar bog'liqligi korrelyatsiyasi va ta'sir etuvchi omillarga ko'ra transport-terminal xizmat ko'rsatish hajmi, transport xizmatlar ko'rsatish hajmi, xalqaro yo'nalishlarda yuk tashish hajmi va xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar hajmining 2025-2029 yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari asoslangan. Korrelyatsion-regression tahlil asosida ajratib olingan omillar ta'sirida jami ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining o'zgarish ssenariylarini aniqlash imkonini beruvchi ekonometrik model hamda prognoz ko'rsatkichlar aniqlandi. Ko'p omilli ekonometrik modeldagi qatnashadigan omillar sifatida – natijaviy belgi etib, transportda tashilgan yuklar hajmi, eksport hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi, xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligi, xizmat ko'rsatish sohasida asosiy fondlar qiymati, xizmat ko'rsatish sohasida fondlar qaytimi va boshqa jami 8 ta omil belgi transport-terminal xizmat ko'rsatish hajmi, transport xizmatlar ko'rsatish hajmi, xalqaro yo'nalishlarda yuk tashish hajmi va boshqa ko'rsatkichlar tanlab olingan. Jizzax viloyati transport-terminal xizmatlar ko'rsatish tizimining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqotimizda mazkur ko'rsatkichlar sifatida: transport-terminal xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'm (Y_1), transport xizmatlar ko'rsatish hajmi, mlrd. so'm (Y_2), xalqaro yo'nalishlarda yuk tashish hajmi, mln. tonna-km (Y_3), mintaqaning yalpi hududiy mahsulot hajmi, mlrd. so'm (Y_4), xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar hajmi, mlrd. so'm (Y_5), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi mlrd. so'm (X_1), ulgurji savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm (X_2), chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm (X_3), avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi, mln. tonna (X_4), eksport hajmi, ming AQSh dollari (X_5), import hajmi, ming AQSh dollari (X_6), asosiy tovarlar eksporti, mln. AQSh dollari (X_7), xizmatlar eksporti, ming. AQSh dollari (X_8), o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibida chet el investitsiyalari ulushi, foizda (X_9), transport tarmog'ida bandlar, ming kishi (X_{10}), kichik biznes subyektlari tomonidan savdo hajmi, mlrd. so'm (X_{11}), kichik biznes subyektlari tomonidan tashilgan yuklar, mln. tonna (X_{12}), transport-terminal tizimida mehnat unumdorligi, mln. so'm/kishi (X_{13}) tanlab olindi.

Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha statistik axborotlar 2-jadvalda keltirilgan.

**Jizzax viloyati transport-terminal xizmatlar ko'rsatish tizimining
makroiqtisodiy ko'rsatkichlari⁷ (qiymatlar 2010-yil narxlar indeksi bo'yicha
muvofiqlashtirilgan)**

Yillar	Transport-terminal xizmatlar ko'rsatish hajmi (mlrd. so'm)	Transport xizmatlar ko'rsatish hajmi (mlrd. so'm)	Xalqaro yo'nalishlarda yuk tashish hajmi (mln. tonna-km)	Mintaqaning yalpi hududiy mahsuloti hajmi (mlrd. so'm)	Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar hajmi, mlrd. so'm
	Y_1	Y_2	Y_3	Y_4	Y_5
2004	46,6748	63,5488	316,6	1411,4611	20,7665
2005	49,1952	67,8701	375,3	1528,9793	21,3272
2006	49,8839	71,7387	476,0	1645,8545	24,2064
2007	51,8294	72,6713	575,5	1771,4003	26,9659
2008	54,7837	83,354	586,6	1915,0254	31,3344
2009	58,509	92,773	597,7	2028,663	34,4365
2010	72,2038	118,109	502,0	2215,3120	38,5047
2011	85,8459	142,3105	547,5	2452,3371	45,1220
2012	103,1524	178,742	581,5	2646,0717	52,7025
2013	112,1267	208,2344	631,8	2881,5721	58,3944
2014	122,3863	225,7261	657,9	3106,3347	64,9929
2015	125,6907	258,9078	692,3	3364,1605	73,247
2016	132,8551	296,4495	745,6	3626,565	84,4538
2017	149,1963	304,1572	773,9	3775,2542	88,8454
2018	172,1725	312,3694	816,7	3956,4664	95,8642
2019	174,4107	327,6755	866,1	4344,2001	112,5446
2020	179,2942	347,0084	980,6	4491,9029	126,3097
2021	213,1808	401,8357	1068,6	4900,6661	137,4313
2022	267,3288	421,9275	1097,4	5126,0967	159,0495
2023	330,6857	476,3561	1103,7	5408,0321	187,0422

Dissertatsiya ishida empirik bog'lanishlarning tarkibida erkli o'zgaruvchilarning tanlanmasi model sifatini pasaytiruvchi, aniqligining sun'iy oshishini ta'minlovchi holatlarning kelib chiqishini bartaraf etish maqsadida korrelyatsion tahlil matrisasining qiymatlanishiga alohida e'tibor qaratilgan 3-jadvalga qarang.

Hisoblangan korrelyatsion tahlil matrisasi qiymatlari keltirilgan empirik bog'liqliklarning maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda. Bog'liqlar tarkibida ishtirok etgan erkli omillarning miqdoriy ko'rsatkichlari keltirilgan.

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma'lumotlari

**Jizzax viloyati transport-terminal xizmatlar ko'rsatish tizimining
parametrlari o'rtasidagi bog'lanish tarkibining korrelyatsion tahlil matrisasi⁸**

Bog'lanish tarkibi	Korrelyatsion tahlil matrisasi	Erkli o'zgaruvchilar bog'liqligi																																																							
$Y_1 = f(X_1, X_4, X_8)$	<table border="1"> <tr> <td>R-kv,tp</td> <td>Y1</td> <td>X1</td> <td>X4</td> <td>X8</td> </tr> <tr> <td>Y1</td> <td>1.000000</td> <td>-----</td> <td>-----</td> <td>-----</td> </tr> <tr> <td>X1</td> <td>0.987155</td> <td>1.000000</td> <td>-----</td> <td>-----</td> </tr> <tr> <td></td> <td>26.21415</td> <td>-----</td> <td>-----</td> <td>-----</td> </tr> <tr> <td>X4</td> <td>0.894744</td> <td>0.437813</td> <td>1.000000</td> <td>-----</td> </tr> <tr> <td></td> <td>8.500353</td> <td>2.066015</td> <td>-----</td> <td>-----</td> </tr> <tr> <td></td> <td>0.0000</td> <td>0.0535</td> <td>-----</td> <td>-----</td> </tr> <tr> <td>X8</td> <td>0.886712</td> <td>0.450599</td> <td>0.179168</td> <td>1.000000</td> </tr> <tr> <td></td> <td>8.137201</td> <td>2.141449</td> <td>0.772647</td> <td>-----</td> </tr> <tr> <td></td> <td>0.0000</td> <td>0.0462</td> <td>0.4498</td> <td>-----</td> </tr> </table>	R-kv,tp	Y1	X1	X4	X8	Y1	1.000000	-----	-----	-----	X1	0.987155	1.000000	-----	-----		26.21415	-----	-----	-----	X4	0.894744	0.437813	1.000000	-----		8.500353	2.066015	-----	-----		0.0000	0.0535	-----	-----	X8	0.886712	0.450599	0.179168	1.000000		8.137201	2.141449	0.772647	-----		0.0000	0.0462	0.4498	-----	Erkli omillar uchun 0,95 tartibdagi Xi-kvadrat bo'yicha hisoblangan qiymatlar mezon (jadval) qiymati 7,815 dan kichik ($\alpha = 0,05; m = 3$) Qo'shimcha omil kiritilmagan					
R-kv,tp	Y1	X1	X4	X8																																																					
Y1	1.000000	-----	-----	-----																																																					
X1	0.987155	1.000000	-----	-----																																																					
	26.21415	-----	-----	-----																																																					
X4	0.894744	0.437813	1.000000	-----																																																					
	8.500353	2.066015	-----	-----																																																					
	0.0000	0.0535	-----	-----																																																					
X8	0.886712	0.450599	0.179168	1.000000																																																					
	8.137201	2.141449	0.772647	-----																																																					
	0.0000	0.0462	0.4498	-----																																																					
